



## Uzbekistan: on the path of the supremacy of the Constitution and law

Shakhbozbek KHASANBOYEV<sup>1</sup>

Tashkent State University of Law

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received September 2024  
Received in revised form  
15 October 2024  
Accepted 25 October 2024  
Available online  
25 December 2024

**Keywords:**

Constitution,  
supremacy of the law,  
stability,  
international rankings,  
reforms,  
rule of law,  
corruption,  
justice,  
state bodies,  
public control.

### ABSTRACT

The article examines the crucial role of upholding the supremacy of the Constitution and the rule of law in the ongoing reforms within our country. It highlights how this contributes to the deepening of socio-political life in society and enhances the nation's prestige and image on the international stage.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss11/S-pp75-78>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## O'zbekiston: Konstitutsiya va qonun ustuvorligi yo'lida

### ANNOTATSIYA

**Kalit so'zlar:**

Konstitutsiya,  
Qonun ustuvorligi,  
Barqarorlik,  
Xalqaro reytinglar,  
Islahotlar,  
Huquq ustuvorligi,  
Korrupsiya,  
Adolat,  
Davlat organlari,  
Jamoatchilik nazorati.

Maqolada yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida Konstitutsiya va qonun ustuvorligining ta'minlanishi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotini yanada chuqurlashtirish, xalqaro maydonda davlatning nufuzi va imijini yaxshilashda muhim rol o'ynayotganligi haqida so'z boradi.

<sup>1</sup> PhD Student, Tashkent State University of Law. E-mail: shaxbozhasanboyev09@gmail.com

## Ўзбекистан: на пути превосходства Конституции и закона

### АННОТАЦИЯ

#### **Ключевые слова:**

Конституция,  
Превосходство закона,  
Стабильность,  
Международные  
рейтинги,  
Реформы,  
Превосходство права,  
Коррупция,  
Справедливость,  
Государственные органы,  
Общественный контроль.

В статье подчеркивается, что в ходе проводимых реформ в нашей стране обеспечение верховенства Конституции и закона играет ключевую роль. Это способствует углублению социально-политической жизни общества и повышению престижа государства, а также укреплению его имиджа на международной арене.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash orqali mamlakatda barqarorlik ta'minlanadi bu orqali mamlakatda qonunlar barcha uchun ishlashi ta'minlanadi. Shu bilan birga, fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchi ortishiga, mamlakatning xalqaro maydonda ham nufuzi ortishiga bu orqali davlatning xalqaro ijobiy imidji yaxshilanishiga erishiladi. Bundan tashqari davlatga investitsiya oqimi kirib kelishi ham yaxshilanadi. Mamlakatimizning xalqaro imidjini yaxshilash hamda xalqaro reytinglardagi o'rnini yaxshilash borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirildi.

Xususan, qonun ustuvorligini ta'minlash borasida ham o'tkazilgan islohotlar natijasida bir qator reytinglarda O'zbekistonning o'rne sezilarli yaxshilandi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-fevraldagi qarori bilan "O'zbekiston Respublikasining xalqaro reytinglar va indekslardagi o'rnini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida boshqaruv sifati va siyosatning samaradorligini o'lchash, mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlar jarayonini baholash, tadqiqotlar natijalaridan kelib chiqqan holda islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqishga yordam beruvchi ustuvor xalqaro reytinglarning mezonlari va indikatorlari Milliy monitoring tizimining tarkibiy qismi etib belgilandi, loyihalar va amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o'rnini yuksaltirishga to'sqinlik qilayotgan normalarni aniqlash nuqtai nazaridan ekspert tahlil qilish hamda tahlil natijalariga ko'ra tegishli tavsiyalar ishlab chiqish belgilandi.

Mazkur jarayonda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni yanada chuqurlashuviga xizmat qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasi bir qator nufuzli xalqaro reytinglarda yuqori natijalarga erishib kelmoqda.

Jumladan, World Justice Project loyihasi doirasida yillik huquq ustuvorligi hisobotlarini berib boruvchi World Justice Project Rule of Law Index bo'yicha O'zbekistonning o'rne yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Ushbu indeks 8 omil va 44 pastki omillar orqali natijani hisoblaydi. Ular quyidagilar:

- Davlat vakolatlaridagi cheklashlar;
- Korrupsiya yo'qligi;
- Ochiq hukumat;
- Asosiy huquqlar;
- Tartib va xavfsizlik;
- Normativ tartibot;

- Fuqarolik odillik;
- Jinoiy odillik;
- Jinoiy odillik.

O'zbekiston ushbu reytingda 2016-yil 113 davlat ichida 93-o'rinni egallagan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2024-yilga kelib 142 davlat ichida 83-o'rinda qayt qilindi. Bu mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga qonun ustuvorligi bo'yicha bir qancha yutuqlarga erishganimizdan dalolat beradi.

Konstitutsiyaning ustunligi uning barcha normativ-huquqiy hujjatlardan ustunligi hamda barcha qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning faqat Konstitutsiya asosida qabul qilinishini anglatadi. Barcha davlat organlari va tashkilotlari o'zlari qabul qilayotgan hujjatlar konsitutsiya va qonunga muvofiq qabul qilinishi bilan birga Konstitutsiyaning 15-moddasida belgilanganidek "Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar" ya'ni barcha davlat organlari hamda tashkilotlar, mansabdor shaxslar o'z faoliyati ham Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq kelish majburiyati yuklatilgan. Bu davlat organlari hamda tashkilotlarning o'z hokimiyat vakolatlarini suiste'mol qilishini oldini oladi.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda olib borilayotgan islohotlar jarayoni qonunchilik tizimida ham o'z aksini topmoqda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2024-yil 18-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi nutqida ta'kidlab o'tganidek: "Quyida palata tomonidan 130 dan ortiq yangi va yaxlit qonunlar qabul qilindi. Bu – oldingi davrga nisbatan 1,5 karra ko'p.

Bularning barchasi yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni mustahkamlash va yanada jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etdi, desak, adolatdan bo'ladi".

Ushbu qonunchilikdagi ko'plab o'zgarishlar vaqtida Konstitutsiya va qonun ustunligi muhim hisoblanadi. Chunki, qonun qabul qilish bir jarayon hisoblansa ularni amalda qo'llash boshqa jarayondir. Qonunchilikdagi o'zgarishlar qonun ustuvorli ta'minlanmasa, amaliyotga joriy qilinmasdan qolib ketishi mumkin. Bu esa islohotlar xalq manfaatiga xizmat qilmay qolishiga olib keladi. Sohibqiron Amir Te'mur ta'kidlaganidek: "Qayerda qonun hukmronlik qilsa, shu yerda erkinlik bo'ladi".

Konstitutsiya va qonun ustuvorligi konstitutsiyaning asosiy prinsipi sifatida ko'rsatilgan bo'lib unga rioya qilinishi zarur. Zero, Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Konstitutsiya va qonun ustuvorligi hamda qonuniylik tamoyillarining so'zsiz ta'minlanishi inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning muhim kafolatidir"

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlarning muvaffaqiyati, tinchlik va taraqqiyotning mustahkam asosi Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashga bevosita bog'liqdir. Shuning uchun, barcha sohalar va tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan fuqarolar, ayniqsa rahbar xodimlar, Konstitutsiya va qonunlarni chuqur bilib, ularning ijrosini samarali tarzda tashkil etish, hamda jamiyatning barcha a'zolari bu qonunlarga qat'iy rioya qiladigan muhitni yaratish bugungi kunda juda muhim va dolzarb vazifaga aylanganligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi PQ-4551-son qarorida ham ta'kidlandi. Shu bilan birga ushbu qarorda bir qator vazifalar belgilandi xususan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini, davlat organlari qarorlari, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari qonunlarga to'liq muvofiq bo'lishini ta'minlash, qonunlar ijrosini samarali tashkil etish,

Konstitutsiya va qonun ustuvorligiga erishishda davlat idoralari faoliyatini jamoatchilik nazorati bilan boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, mustaqil va obyektiv ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlarini yanada rivojlantirish,

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yangi bosqichga ko'tarish, huquqiy axborotni zamonaviy usullar bilan keng jamoatchilikka yetkazish, shuningdek, har bir fuqaro va mansabdor shaxsda Konstitutsiya va qonunlarga hurmatni shakllantirish,

Adolatli sudlov tizimini yanada takomillashtirish, sud hokimiyatining obro'sini oshirish va uning haqiqiy mustaqilligini ta'minlash,

Davlat va jamiyat boshqaruvida, shuningdek, davlat organlarining kundalik faoliyatida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini yanada kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni xalqning manfaatlarini himoya qiladigan tashkilotlarga aylantirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PF-67-son Farmonida ham "davlat organlari va tashkilotlarining rahbarlari yangi tahrirdagi Konstitutsiyani amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosini o'z vaqtida ta'minlash uchun shaxsan javobgar" ekanligi belgilab qo'yildi. Bu esa, raxbarlarga Konstitutsiya ustuvorligini o'zlari chiqarayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda hamda o'z ish faoliyatida ta'minlashda majburiyat yuklaydi. Shu bilan birga ushbu qarorda yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to'g'ridan-to'g'ri va so'zsiz qo'llanishi belgilandi. Bu orqali qonun hamda qonun osti hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilmagan vaj bilan Konstitutsiya normalariga amal qilmaslik holatlarini oldi olindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi 2023-yil 23-iyundagi 16-son Plenum qarorida ham Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchga egaligi haqidagi qoida uning normalari barcha qonun va boshqa normativ-huquqiy hujjatlardan ustun turishi, Konstitutsiya normalarini to'g'ridan to'g'ri amal qiluvchi oliy yuridik kuchga ega normativ-huquqiy asos sifatida qo'llashi qayd etildi.

Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashda nafaqat normativ-huquqiy hujjatlarni yangilash balki ularni amalga oshirish bu borada ta'sirchan jamoatchilik nazoratini ko'magi ham zarur ahamiyatga ega. Chunki, ushbu Konstitutsiyaning asosiy prinsipini ta'minlashda jamoatchilik muhim ahamiyatga ega. Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash, barcha normativ-huquqiy hujjatlarning unga mos kelishini nazarda tutib, fuqarolarda qonunlarga hurmat hissini shakllantirish jamiyatning barqarorligini mustahkamlaydi.

Bularning barchasi Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlashni, davlat organlarining faoliyatini ochiq va samarali boshqarishni, shuningdek, jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirishni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi. Shunday qilib, ushbu jarayonlar mamlakatimizning tinchlik, taraqqiyot va xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlashda davom etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. Mirziyoyev Sh.M., Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.
3. Mirziyoyevning Sh.M., 2024-yil 18-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi nutqi.
4. Temur tuzuklari.
5. O'zbekiston qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi [www.lex.uz](http://www.lex.uz)